

OMMAVIY OFERTA

ATB «TENGE BANK» TOMONIDAN MASOFAVIY BANK XIZMATLARI ORQALI «MUDDATLI» NOMLI MUDDATLI OMONAT SHARTNOMASINI TUZISHGA

Ushbu Ommaviy oferta (keyinchalik matnda - Oferta) «Tenge Bank» ATB (keyinchalik matnda - Bank) tomonidan rasmiy taklif bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369-moddasiga muvofiq, milliy valyutadagi «MUDDATLI» nomli muddatli omonat bo'yicha Shartnomani, quyida keltirilgan shartlar asosida «Tenge Bank» ATBning masofaviy bank xizmatlaridan (keyinchalik matnda – MBX) foydalanuvchi jismoniy shaxs (keyinchalik matnda – Omonatchi) bilan tuzish uchun taklif etilgan hisoblanadi.

Ushbu Ofertada ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish, Omonatchining ushbu Ofertada bayon etilgan shartlar, tartib va ko'lamda Shartnoma tuzishga roziligi borligini tasdiqlaydi.

Shartnoma (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 759-moddasi) omonat summasi Bankka tushgan paytdan va bu Ofertada nazarda tutilgan harakatlar Omonatchi tomonidan bajarilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi hamda huquqiy kuchga ega bo'ladi, bu harakatlar mazkur Ofertada bayon etilgan barcha shartlarni qo'shilish asosida shartsiz qabul qilinganini (aksept qilinganini) anglatadi.

Ushbu Oferta tuzilgani va undagi shartlar qabul qilingani hamda «MUDDATLI» muddatli omonat (keyinchalik – Omonat) bo'yicha mablag'lar Omonatchining hisobiga tushganining tasdig'i sifatida, MBX tizimi orqali («Shaxsiy kabinet», Bankning mobil ilovasi va h.k.) MBX tizimida Omonat ochilganligi haqida tasdiqnoma yuborish shaklida va/yoki Bank tizimida ro'yxatdan o'tkazilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar yuborilishi xizmat qiladi.

1. Shartnoma mavzusi

1.1. Bank ushbu Ofertada belgilangan shart va tartibga muvofiq, Omonatchidan naqdsiz shaklda «MUDDATLI» muddatli omonat hisobiga pul mablag'ini qabul qiladi hamda ushbu Ofertada ko'rsatilgan shart va muddatlarda omonat summasiga foizlarni hisoblab, to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2. Omonat shartlari

2.1. Omonatchiga hisob raqami ochiladi: №20606 – «Jismoniy shaxslar muddatli depozitlari».

2.2. **Omonat shartlari:**

- Omonat shakli – muddatli
- foizli stavka - **19%** yillik;
- Omonat muddati – **12 oy;**
- Omonat minimal miqdori– **10 000 000,00 So'm;**
- Omonat maksimal miqdori – cheklanmagan;
- qo'shimcha to'lov – nazarda tutilmagan;
- qisman chiqarish (asosiy summani) – nazarda tutilmagan;
- kapitalizatsiya – nazarda tutilmagan;
- prolongatsiya – nazarda tutilmagan;
- foizlarni to'lash – har oy, omonat valyutasida, avtomatik tarzda №20206 «Omonatchining talabiga ko'ra depozit hisobi»ga o'tkazish yo'li bilan.

2.3. Omonatchining ushbu Oferta shartlarini qo'shilishi ushbu Ofertani qabul qilish (rozilik berish) va MBXT orqali boshqariladigan bankdagi hisob raqamlari va bank kartalaridan onlayn tarzda mablag' o'tkazishi yoki muddatli omonatni qayta rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi.

2.4. Omonat muddati tugagach, Omonat summasi va hisoblangan foizlar Omonatchining «Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari – 20606» hisobidan avtomatik tarzda №20206 hisobiga - «Omonatchining talab qilinguncha depozit hisobi»ga o'tkaziladi.

2.5. Omonatning to'liq summasi muddatidan oldin qaytarilganda, MBX tizimi orqali №20206 hisobiga – «Omonatchining talab qilinguncha depozit hisobi»ga yoki «Tenge Bank» ATBda ochilgan bank kartasiga o'tkaziladi. Shu bilan birga, hisoblarga yoki bank kartalariga keyinchalik mablag' o'tkazish amaliyoti, boshqa banklarda ochish Bankning amaldagi tariflari bo'yicha tarifkatsiya qilinadi.

2.6. Agar muddatli omonatni qaytarish sanasi (onlayn) dam olish/bayram kuniga to'g'ri kelsa, omonat qaytarish aynan o'sha kuni amalga oshiriladi. Bunda foizlarni hisoblash omonat Omonatchiga qaytariladigan kundan oldingi kunni o'z ichiga olgan holda hisoblanadi.

2.7. MBXT orqali harakatlar amalga oshirilgan va Omonatchining talabiga binoan mablag'lar hisobdan chiqarilgan holda Omonatchining talabi bo'yicha Omonatning to'liq summasi muddatidan oldin qaytarilsa (muddatidan oldin qaytarilsa) yoki Omonatning saqlash muddati tugasa, ushbu Oferta bekor qilingan deb hisoblanadi.

2.8. Omonatni saqlash muddati tugaganida yoki Omonat muddatidan oldin yopilganida, Omonat mablag'lari o'tkazilgandan so'ng omonat hisobi avtomatik tarzda yopiladi.

3. Foizlarni hisoblash tartibi

3.1. Omonat bo'yicha foizlar kunda 2023 yil 29 sentyabrdagi №3460-sonli «Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, yil uchun hisob-kitobda kun soni 365 kun deb qabul qilinadi.

3.2. Omonat summasiga foizlar bankka tushgan kundan keyingi kundan boshlab Omonatchiga qaytarilishidan yoki Omonatchining hisobidan boshqa sabablarga ko'ra chiqarilishidan oldingi kungacha hisoblanadi. Bank Omonatchining hisobiga qo'yilgan musodara va/yoki Omonatchining hisobi bo'yicha operatsiyalarni to'xtatgan natijasida ushbu hisobdagi pul mablag'laridan foydalana olmagan paytda foizlar hisoblanmaydi.

3.3. O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi talablariga muvofiq (30-, 366- va 382-moddalar), soliq rezidenti maqomiga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasiga qarashli bo'lmagan Omonatchilardan Bank tomonidan omonat bo'yicha to'lanadigan foizlar (daromadlar) summasidan soliq to'lovlar manbaida soliq ushlab qolinadi, keyinchalik byujetga o'tkaziladi.

3.4. Omonat bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar Bankning operatsion kuni ochiq bo'lsa, o'sha kuni Bank balansida aks ettiriladi. Bankning operatsion kuni yopilgandan keyin amalga oshirilgan operatsiyalar Bank balansida keyingi ish kunida yoki ishlamaydigan/dam olish kunlarida, Bank balansida ishlamaydigan kundan keyingi birinchi ishlaydigan Bank kunida aks ettiriladi. Shu bilan birga, Omonat Bankka tushgan sana yoki Omonatdan pul mablag'lari chiqarilgan kuni sifatida MBXT operatsiyaning amalga oshirilgan haqiqiy sanasi hisoblanadi.

3.5. To'liq muddatidan oldin qaytarilganda, Omonatchiga Omonatning asosiy summasi hisoblangan foizlarsiz to'lanadi. Agar foizlar oldinroq Omonatchiga to'langan bo'lsa, ilgari to'langan foizlar miqdori Omonatning asosiy summasidan ushlab qolinadi.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. Bank majbur:

4.1.1. Bankning amaldagi va taklif etilayotgan omonat shartlarini hamda ushbu Ofertani o'zining www.tengebank.uz rasmiy veb-saytida va MBXT joylashtirishga;

4.1.2. 2.2-bandga muvofiq Omonatchidan Omonat summasini qabul qilish va tegishli hisoblarga o'tkazishga;

4.1.3. ushbu Ofertaning 2.2., 3.1., 3.2. va 3.3-bandlariga muvofiq foizlarni hisoblash va to'lashga;

4.1.4. ushbu Oferta shartlarining o'zgarishi haqida Omonatchilarga oldindan SMS-xabarlar/eslatmalar yo'llash va rasmiy www.tengebank.uz veb-saytida joylashtirish orqali xabardor qilishga;

4.1.5. Omonat muddati tugagandan so'ng ushbu Ofertaning 2.4., 2.5. va 3.3-bandlariga muvofiq, Omonat summasini mutlaq naqd pulsiz) shaklda qaytarishga;

4.1.6. hisoblardagi mablag'larning saqlanishini va daxlsizligini ta'minlashga. Hisoblardagi mablag'larni hibsga olish yoki hisoblar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlarda amalga oshirilishi mumkin;

4.1.7. O'R soliq qonunchiligiga muvofiq norezidentga ochilgan (soliq rezidenti maqomi bo'lmagan taqdirda) omonat bo'yicha to'lanadigan foizlardan (daromadlardan) to'lovlar manbaidan soliq summasini to'g'ri hisoblash, ushlab qolish va O'zbekiston Respublikasi byujetiga o'tkazilishini ta'minlashga;

4.1.8. Bank siriga oid ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlash, omonatchi va omonat to'g'risidagi ma'lumotlarni faqat amaldagi qonunchilikda belgilangan holatlar va tartibda uchinchi shaxslarga taqdim etishga.

4.2. Bank huquqli:

4.2.1. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablariga muvofiq, tegishli davlat organlarining sud qarorlari kelib tushgan taqdirda, Omonatchining e'tirozlariga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda choralar (pul mablag'larini hibsga olish, pul mablag'larini akseptsiz tartibda yechib olish, hisob bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish va boshqalar) ko'rishga;

4.2.2. Omonatchi hisoblarida joylashgan pul mablag'lari bo'yicha bank operatsiyalari xizmatlari uchun belgilangan Bank Tariflariga muvofiq Omonatdan naqdsiz pul mablag'larini yechib olish uchun komissiya to'lovini undirishga;

4.2.3. jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Bank Omonatchini identifikatsiya qilish hamda hisoblar bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumot va hujjatlarni taqdim etishini talab qilish huquqiga ega;

4.2.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda, hisoblar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga yoki ularni bajarishdan bosh tortishga;

4.2.5. xalqaro iqtisodiy sanksiyalar talablarining buzilishi yuzasidan shubhalar paydo bo'lsa, majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarishdan bir tomonlama tartibda voz kechishga, shuningdek hisoblar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga;

4.2.6. Omonatchi hisobidan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek xabarnomalar, eslatmalar, Bank yangiliklari, axborot va reklama materiallari hamda tijorat takliflarini pochta orqali, elektron aloqa vositalari, SMS-xabarlar yoki Omonatchi tomonidan Bank tizimida ko'rsatilgan manzil va telefon raqamlariga yoki boshqa har qanday usulda yuborishga. Yuborilgan korrespondensiya uchinchi shaxslarga taqdim etilishi bilan bog'liq barcha xavflarni Omonatchi o'z zimmasiga oladi;

4.2.7. Bank tomonidan omonatga xatolik natijasida pul mablag'lari tushirilgan hollarda Mijoz Bankka ushbu pul mablag'larini va/yoki Omonat summasiga noto'g'ri hisoblangan/ortiqcha to'langan foizlar miqdorini Omonatdan Mijozning qo'shimcha buyruqlarisiz (oldindan berilgan aksept) asosida yechib olish huquqini beradi va buning uchun rozilik bildiradi;

4.2.8. ushbu Ofertaning Omonat shartlarini o'zgartirmaydigan, amaldagi qonunchilikka muvofiq holda unga kichik o'zgartishlar kiritishga.

4.3. **Omonatchi majbur:**

4.3.1. Omonat va ushbu Oferta shartlari bilan tanishishga;

4.3.2. ushbu Oferta shartlariga amal qilishga;

4.3.3. hisoblar bo'yicha amaliyotlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga to'liq rioya qilgan holda amalga oshirishga;

4.3.4. Bank talabi bo'yicha ushbu shartnomaga ko'ra so'ralgan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishga;

4.3.5. MBXTning avtorlashtirilgan foydalanuvchisi bo'lish va omonatga dastlabki summani (badalni) kiritish uchun talab qilib olinguncha bank kartasi/ depozit hisobida yetarli miqdorda belgilangan pul mablag'ga ega bo'lishga;

4.3.6. hisoblarga xatolik natijasida tushgan va/yoki hisoblardan chiqarilgan mablag'lar aniqlansa, bu haqda darhol Bankka xabar berish va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanmaslik;

4.3.7. Bank Tariflarida nazarda tutilgan hisob bo'yicha mablag' harakatiga oid bank operatsiyalari bilan bog'liq komissiya to'lovlarni to'lashga;

4.3.8. MBXT orqali depozit mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri Omonatchi tomonidan Omonat mablag'larini boshqarish huquqini beradigan ma'lumotlar (login, parol, PIN-kodlar) maxfiyligini ta'minlashga va ularni uchinchi shaxslarga bermaslikka;

4.3.9. login va parol orqali ruxsatsiz kirish va/yoki xavfsizlikka oid har qanday buzilish holati yuz berganda, darhol Bankning Kontakt markaziga/ Bankning tegishli bo'linmasiga yoki MBXT qo'llab-quvvatlash xizmatiga xabar berishga;

4.3.10. o'z manzili, familiyasi, ismi yoki otasining ismi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki telefon raqami, jumladan mobil telefon raqami o'zgarishi haqida yozma ravishda Bankni xabardor qilish;

4.3.11. ushbu Shartnoma to'liq muddatidan oldin bekor qilingan holda Omonatchi avval to'langan foizlar summasini Bankka qoplashi shart, ushbu foizlar Bank tomonidan Omonat qaytarilayotganda uning summasidan ushlab qolinadi;

4.3.12. jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka, shuningdek xalqaro iqtisodiy sanksiyalarga rioya qilishga.

4.4. Omonatchi huquqli:

4.4.1. mablag'lar Omonatga o'tkazilgach, belgilangan tartibda Banktan Tasdiqnoma olishga;

4.4.2. Omonat bo'yicha operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni SMS-xabarlar va/yoki MBXT (Bankning mobil ilovasi hamda Bankning rasmiy www.tengebank.uz saytida joylashtirilgan shaxsiy kabinet orqali) olishga;

4.4.3. Omonat hisobi bo'yicha chiqimlarni belgilangan tartibda olishga;

4.4.4. Omonatni shaxsan boshqarish yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq uchinchi shaxslarga boshqarish huquqini berishga;

4.4.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq omonatchining boshqa huquqlaridan foydalanishga.

4.4.6. Omonat summasi va to'langan foizlardan erkin foydalanish;

4.4.7. Omonat muddati tugagach, shuningdek, ushbu Ofertada belgilangan tartibda muddatidan oldin omonat summasini talab qilishga.

5. Tomonlar javobgarligi

5.1. Ushbu Oferta bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Ofertani buzgan tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

5.2. Omonatchi quyidagilar uchun javobgar /xavf:

5.2.1. MBXT orqali Omonat va Omonat bo'yicha operatsiyalar to'g'risida olingan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash uchun;

5.2.2. MBXT orqali Omonat mablag'larini boshqarish huquqini beruvchi ma'lumotlarning (login, parol, PIN-kodlar) saqlanishini va maxfiyligini ta'minlash, shuningdek Omonatchi tomonidan ushbu ma'lumotlarni saqlash va maxfiyligini ta'minlash bo'yicha talablarga rioya qilinmasligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlari uchun;

5.2.3. Omonatchining o'zonamasi yoki ehtiyotsizligi tufayli Bank tomonidan ushbu Oferta asosida ko'rsatiladigan distansion xizmatdan boshqa shaxslar tomonidan noqonuniy foydalanilishi va bu noqonuniy foydalanishdan kelib chiqqan barcha oqibatlar uchun.

5.3. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

5.3.1. o'z manzili va/yoki telefon raqamlari, jumladan mobil telefon raqami, familiyasi, ismi yoki otasining ismi hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatning o'zgarishi haqida o'z vaqtida xabardor qilmaslik oqibatida distansion xizmat ko'rsatish to'xtatilishi yoki bank siriga oid ma'lumotlar oshkor etilishi mumkin;

5.3.2. Omonatchining mobil telefoni boshqa shaxslar qo'liga tushgan hollarda, o'zga shaxslar tomonidan MBXT orqali ruxsatsiz amalga oshirilgan operatsiyalar;

5.3.3. Omonatchi tomonidan MBXT kirish uchun login va parolni boshqa shaxslarga oshkor etishga (taqdim etishga);

5.3.4. Omonatchining MBXTdagi shaxsiy akkauntiga ruxsatsiz kirish natijasida yetkazilgan moliyaviy va/yoki har qanday boshqa turdagi zarar;

5.3.5. Omonatchining beparvoligi, qasddan qilgan harakatlari yoki harakatsizligi natijasida uchinchi shaxslar tomonidan operatsiyalar amalga oshirilishi va buning natijasida Omonatchiga moliyaviy yo'qotishlar yetkazilgan/ yetkazadigan holatlar;

5.3.6. Omonatchi tomonidan login/ parol ma'lumotlarining oshkor etilgani, mobil telefon raqamidan uchinchi shaxslar tomonidan foydalanilgani va MBXTga ruxsatsiz kirish holatlari to'g'risida yozma ravishda Bankka bildirishdan oldin amalga oshirilgan noqonuniy operatsiyalar.

5.4. Bank jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini moliyalashtirishga qarshi kurashishga oid qonunchilik, tijorat banklariga tegishli tartib-qoidalar hamda xalqaro iqtisodiy sanksiyalar talablariga muvofiq holda majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarishdan voz kechgan yoki Omonatchi operatsiyalarini to'xtatgan hollarda, javobgarlikdan ozod etiladi;

5.5. Tomonlar ushbu Oferta bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi, agar mazkur majburiyatlar noma'lum kuch sharoitlari, ya'ni mavjud shart-sharoitlarda oldini olish imkoni bo'lmagan favqulodda va muqarrar holatlar tufayli O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarori asosida majburiyatlar (moratoriy) ijrosini kechiktirish, joriy etilishi

yoki ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yoki boshqa qarorning amal qilishini to'xtatib turilishi.

6. Boshqa shartlar

6.1. Omonat bo'yicha MBXT orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar Omonatchining ushbu operatsiyalarni bahssiz qabul qilganligini anglatadi.

6.2. Ushbu Oferta shartlarini aksept qilib, Omonatchi Omonat shartlari, MBXT orqali ko'rsatiladigan bank xizmatlari, Bank Tariflari bilan tanishganini, ularni to'liq o'rganganini, ularga rozi ekanini va ushbu shartlarni o'z uchun majburiy deb e'tirof etishini tasdiqlaydi.

6.3. Ushbu Oferta ijrosi bilan bog'liq nizolar tomonlar o'rtasida muzokaralar orqali hal etiladi. Agar nizolarni muzokara yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal etiladi.

6.4. Omonatchi Bankning operatsion kuni muddati to'g'risida xabardor qilingan, MBXT orqali operatsiya bankning operatsion kuni yopilgandan so'ng amalga oshirilgan taqdirda, Omonat bo'yicha ushbu operatsiya keyingi ish kunida aks ettirilishi haqida ogohlantirilgan.

6.5. Omonatchi ushbu Oferta bilan Bankda, MBXT va Bankning rasmiy veb-sayti — **www.tengebank.uz** orqali tanishishi mumkin.

6.6. Bank tomonidan Omonatga qabul qilingan pul mablag'larini qaytarish O'zbekiston Respublikasi banklaridagi omonatlarni kafolatlash Agentligi tomonidan, 18.02.2025y. qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida»gi Qonuniga №ZRU–1031 muvofiq kafolatlanadi.

6.7. Kafolat holati yuzaga kelgan sanada kafolatlangan omonatlar obyektlari egalari — omonatchilarning tugatilayotgan bankka nisbatan talab qilish huquqlari Agentlik tomonidan kompensatsiya to'langanidan qat'i nazar, kafolatlangan omonatlar miqdoriga teng miqdorda Agentlikka o'tkaziladi. Agentlikning tugatilayotgan bankka nisbatan talablari amaldagi qonunchilikda belgilangan navbatlikka muvofiq qondiriladi.

6.8. Ushbu Ofertada nazarda tutilmagan holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga amal qiladi.